



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



TA'LIM JARAYONINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION PED TEXNOLOGIYALARING AHAMIYATI

Fazliddinova Sayyora

Samarqand Davlat Chet tililar Instituti Ikkinch bosqich talabasi

Shahribonu Sirojiddinova

Ilmiy raxbari

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limdi rivojlantrishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni yoritilgan. Shuningdek, pedagogik texnologiya asosida mashg'ulot o'tish, dars jarayonida zamonaviy texnik vositalar, kompyuterlar, videokompyuterli multimedya komplekslarini qo'llash orqali o'tish kerakligi asoslangan. Pedagogik texnologiya tushunchasi ilmiy maqolalar, davriy nashrlar, anjumanlardagi mavzu va hisobotlarda ham o'z aksini topmoqda va bu fan bilan bilan shug'ullanadigan olimlarning ilmiy ishlari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika fani, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'limg tamoyillari, metodik ishlanmalar.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy dasturining "Uzluksiz ta'limg tizimi va turlari" bo'limida ikki bosqichli oliy ta'limdi tashkil etish va rivojlantrish uchun amalga oshirish zarur bo'lgan tadbirlar qatorida "yangi pedagogik va axborot texnologiyadan foydalangan holda talabalarni o'qitishni jadallashtirish; o'qitishni mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda distantsion ta'limg tizimi texnologiyasi va vosilalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish" haqida so'z yuritilgan. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish o'qitishni takomillashtirish, ya'ni o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalami keng tatbiq qilish, kompyuterli avtomatlashtirilgan o'qitish tizimini qo'llash, ta'limgda yangi texnikaviy va didaktik vositalar hamda multimedya imkoniyatlardan foydalanish, masofadan o'qitish ta'lmini joriy qilish kabi o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash orqali bajariladi. Rivojlangan mamlakatlarda yangi pedagogik texnologiya asta-sekinlik bilan shakllanib, O'zbekiston Respublikasiga ham kirib kela boshlagan. Yangi pedagogik texnologiya dars jarayonida talabalarni mustaqil fikrplash, erkin faoliyat yuritishga da'vat etadi.

So'nggi yillarda Respublikamizning taniqli pedagog olim va o'qituvchilari tomonidan o'quvjarayoniga pedagogik texnologiyalami joriy etish bo'yicha samarali izlanishlar olib borilmoqda. Pedagogik texnologiya tushunchasi ilmiy maqolalar, davriy nashrlar, anjumanlardagi mavzu va hisobotlarda ham o'z aksini topmoqda. Jumladan, respublikamiz olimlari R.X.Jorayev, A.P.Parpiev, N.X.Saydahmedov, U.N.Nishonaliev, L.Farberman, L.V.Golish, U.X.Tolipovlar hamda Rossiya pedagog olimlaridan V.P. Bezpalko, M.V.Klarin, V.M.Monaxov, P.I.Pidkasistiylar, shuningdek, qozog'istonlik olimlaridan M.J.Aristanov,

"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



J.S.Xaydarov va boshqalar o'z ilmiy tadqiqotlarida "pedagogik texnologiya" tushunchasining mohiyatini va ahamiyatini olib berishga harakat qilganlar. Hozirgi kunda pedagogika adabiyotlari, ta'lif muammolariga oid ma'ruzalar va rasmiy hujjatlarda "yangi pedagogik texnologiya", "ilg'or pedagogik texnologiya", "zamonaviy pedagogik texnologiya", "o'qitish texnologiyasi", "ta'lif texnologiyasi" kabi iboralar keng qo'llanmoqda. Ammo ushbu tushunchalar hali ham bir qolipa tushirilmagan va entsiklopidiyalarda izohlanganicha yo'q. Bu iboralar mazmunining yagona lalqini ishlab chiqilmagan va shuning uchun ularning birbiridan farqlanuvchi ko'pgina ta'riflari mavjud.

V.Guzevning ta'kidlashicha. an'anaviy uslubda ta'lif maqsadlari dastur talablari muvofiq holda noaniq, ya'ni ta'lif oluvchilarning "o'zlashtirish" tushunchasi qobig'iga o'ralgan noaniq tasavvur bilan tavsiflanadi. Ko'proq yutuqlarga erishgan o'qituvchilarning ish tajribalarini umumlashtirish asosida ta'lif jarayonlari tashkil etiladi. Har bir aniq vaziyat uchun mana shu o'qituvchilarning pedagogik faoliyati namuna sifatida ko'rsatiladi. Ammo bir qator olimlar ta'lifning alohida uslubiyotlari davri o'tganligi va har qanday ilg'or pedagoglar tajribalarini umumlashtirish tizimli va maqsadga yo'naltirilgan, samarali ta'lifni qurish imkonini bermasligini ta'kidlamoqdalar. Hozirgi kunda ko'pgina mutavassislar an'anaviy pedagogikani tanqid qilgan holda o'qitishda haligacha umumiyl tushunchalar, qoida va qonuniyatlar o'rganiladigan yondashuv ustivorligini ta'kidlamoqdalar. O'quvchilarning real dunyo ob'ektlari bilan ishlashi hajm va mazmun jihatidan juda kam.

Ta'lif metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo'lgan vazifalarii amalga oshirishda qo'llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarini o'z ichiga oladi.

Bu ishlarni amalga oshirishning shakllangan va amaliyotda qo'llanilayotgan har turli usullari va shakllari asosida ko'plab ta'lif metodlari hosil bo'lgan va bu jarayon davom etmoqda. Muayyan ta'lif-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga oshirish yo'li, usuli yoki ko'rinishidan iborat bo'lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o'ziga xos ta'lif metodini hosil qiladi.

Bunda harakatni amalga oshirish yo'li deb bajarilishi talab qilinayotgan faoliyat uchun qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta yo'llardan oldindan ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo'lni aytildi. Masalan, savod o'rgatish yo'llari: oilada o'rgatish, mакtabda o'rgatish, mакtabgacha ta'lif muassasasida o'rgatish, o'qituvchi yordamida o'rgatish, kitoblar, kompyuter, ko'rgazma qurollar va boshqalar vositasida o'rgatish. Shunga o'xhash sanoqni, arifmetik amallarni o'rgatishda ham yuqoridagiga o'xhash yo'llardan foydalanish mumkin. Shu yo'llardan foydalašib harakatni amalga oshirishda har turli

"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



metodlarni qo'llaniladi. Masalan, savod o'rgatish maqsadida yuqorida aytilgan yo'llardan istalgani tanlangandan keyin, shu har bir yo'l uchun maqsadga muvofiq deb hisoblangan metodlarni qo'llaniladi. Bular, oilada, mактабгача та'lim muassasasida, maktabda savod o'rgatishni amalga oshirishda o'qituvchinnng, tarbiyachining qo'llaydigan ish usullarini; kompyuter, kitob va boshqa ta'lim- tarbiya vositalarini belgilangan maqsadga muvofiq qo'llash metodlarini o'z ichiga oladi. Shunga o'xshash sanoqni, arifmetik amallarni o'rgatish yuzasidan ham tanlangan har bir yo'l o'ziga xos metodlarni qo'llashni nazarda tutadi. Demak har bir harakat ma'lum yo'lda va shunga muvofiq metoddha amalga oshiriladi.

Biror metodni qo'llaşdagi harakatni amalga oshirish ko'rinishi deb shu harakatni batafsil tasvirlovchi ko'rinishga aytiladi. Bunda harakatning kuzatiladigan o'zgarishlari, vaziyatlari, tezligi va uning ortishi yoki sekinlashuvi, to'xtashlari, bir nechta harakatlarning bir vaqtligi yoki ularning vaqt oraliqlari, harakatlar natijasi, amaliy ishlar bajarish mashulotlarida esa, ishlov berilayotgan shakllar, fazoviy xolatlar, ranglar, qattiq-yumshoqlik, sirtlarning tekisligi yoki adir-budurligi o'zgarishlari va boshqa kuzatish mumkin bo'lgan turli harakat ko'rinishlari nazarda tutiladi.

Inson faoliyatining barcha sohalarida tegishli metodlardan foydalaniadi. Bu metodlarning eng umumiyligi belgisini hisobga olgan holda ularni borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish operastiyalarining yoki yo'llarining yiindisi deyish mumkin. Ushbu qo'llanmada metod tushunchasini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan boliq jihatlardan ko'rib chiqiladi. Shunga muvofiq ta'lim metodlari bilan boliq eng asosiy tushunchalarning izohlarini ko'rib chiqamiz.

Metod – (grekcha “metodos” so'zidan olingen bo'lib, yo'l, ahloq usuli ma'nolarini anglatadi). Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yo'li, usuli yoki qiyofasi, shakli, ko'rinishi.

Ta'lim metodi – o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni egallah hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli. Belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan usullari majmuasidir.

Metodika – biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, usullari, yo'llari majmuasi. U alohida metodikalardan tashkil topadi. Pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilalar.

Usul – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish tartibi.

Uslub – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish uchun qo'llash lozim bo'lgan usullar majmuasi.



Yo'l (ruscha – priyom) – biror maqsadni amalga oshirish uchun tanlangan harakat turi.

Yuqorida aytilganlardan ko'rindan, har bir ta'lim metodi tarkibiga muayyan ta'lim-tarbiyaviy vazifani bajarishga qaratilgan ish-harakat usullari, yo'llari kiradi.

Hozirgi ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan – kunga kuchayib bormoqda. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchining shaxsiy rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniлади. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir yetish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqolada keltirilgan zamonaviy metodlar o'quvchida mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisiga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Ma'lumki, interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergen. Keng qo'llaniladigan usullar – "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom yettir", "Taqdimot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat" kabilidan foydalaniб, darsda samarali natjalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida "Sinkveyn", "Teskari test", "Aql charxi" metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida "Insert", "Pinbord", "Zinama-zina", "Bumerang" texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nima uchun?", "Qanday?", "Konseptual jadval", "Nilufar guli" kabi grafik tashkil yetuvchilar hamda "Tushunchalar tahlili", "T-jadval", "Rezyume", "Kungaboqar", "Charxpalak" metodlarini, uyga vazifa berishda "FSMU", "Klaster", "BBXB" metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.



ADABIYOTLAR:

1. J.Yo'ldoshev, S.Usmonov, —Pedagogik texnologiya asoslari, T., 2004.
2. J.Yo'ldoshev, —Ta'lim yangilanish yo'lidall, T., 2000.
3. Ptiyukov V.Yu., —Osnov pedagogicheskoy texnologii, M., 1999.
3. Qodirova, M. (2020). Voyaga yetmagan o'smirlar xulq atvorini shakllantirishda olib boriladigan ishlar mazmuni. Архив Научных Публикаций JSPI.
4. Majidov, J., & Majidova, G. (2020). SHAXS IJTIMOIY TARAQQIYOTIDA
5. OILA MUHITINING O'RNI. Архив Научных Публикаций JSPI.
10. Majidov, J. (2020). PSYCHOLOGICAL CRITERIA OF THE LEADER PERSONALITY. Архив Научных Публикаций JSPI.
6. Majidov, J. (2020). Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Majidov, J. (2021). СПОРТДАГИ МУЛОҚОТ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ҲОДИСА СИФАТИДА. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от
8. <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/723>
9. 8.Majidov, J. (2021). ФУТБОЛ ЖАМОАЛАРИДА ЎЗАРО МУНОСАБАТЛАР КЕЧИШИНинг АЙРИМ ҲУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от
10. <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/7244>. www.tests-tests.com
11. www.psiholog1.ru
12. uzedu.uz
13. www.ziyonet.uz